

Date: 13th April-2026

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA ISLOMIY QADRIYATLARNING
JAMIYAT RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna

TDYU huzuridagi Namangan viloyati
akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: zafarbekismatov@gmail.com
Tel: +99899 728 05 58

Abdullajonova Ziyodaxon Javlon qizi

TDYU huzuridagi Namangan viloyati
akademik litseyi 1-kurs 105-guruh o'quvchisi

Annotatsiya. O'zbekistonda islomiy qadriyatlar metodologik asoslari, islomiy tadqiqotlarning o'rganish, tahlil qilish va tahlil etish usullariga asoslangan. Bu asoslar, islomiy ilmlarni o'rganishda va tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: islomiy qadriyatlar, jamiyat, ijtimoiy huquq, umuminsoniy din, Konstitutsiya.

Аннотация. Методологические основы исламских ценностей в Узбекистане основаны на методах изучения, анализа и интерпретации исламских исследований. Эти основы имеют важное значение в процессе изучения и воспитания в области исламских наук. В данной статье данный вопрос подробно освещается.

Ключевые слова: исламские ценности, общество, социальное право, общечеловеческая религия, Конституция.

Annotation. The methodological foundations of Islamic values in Uzbekistan are based on the methods of studying, analyzing, and interpreting Islamic research. These foundations play an important role in the study and education of Islamic sciences. This article provides a detailed discussion of this issue.

Keywords: Islamic values, society, social law, universal religion, Constitution.

O'zbekistonda islomiy qadriyatlarning jamiyat rivojlanishiga ta'siri juda katta hisoblanadi. Islom dini O'zbekistonning milliy tafakkuri, erkinligi va xalqaro aloqalarda o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu, O'zbekistonda islomiy qadriyatlarning mustaqil davlat tashkil etilgandan so'ng ham ancha muhim ahamiyatga ega bo'lishi sababli, ular jamiyat rivojlanishiga ta'sir qilishda juda muhim rol o'ynagan. Islom dini O'zbekistonda tarixiy ravishda jamiyatni rivojlantirib kelgan. Ushbu din milliy tafakkurning bir qismi bo'lib, u yerli insonlar uchun zaruriy ma'nolarga ega bo'ladi.

Shuningdek, islomiy qadriyatlarning jamiyat rivojlanishiga ta'siri turli sohalarda ham seziladi. Masalan, bu dinning siyosiy sohada rivojlanishiga ta'siri juda katta hisoblanadi. Islom dini, fuqarolarning ijtimoiy huquqni o'rganishda va jamiyatning shariat qoidalari bilan barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Date: 13th April-2026



Bugungi kunda jamiyat davlat doirasidan tashqarida rivojlanayotgan ko'plab shaxslararo munosabatlar, oilaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va boshqa birlashmalar, tuzilmalar majmui sifatida talqin qilinadi. Ya'ni «Jamiyat turli xil manfaatlar, qarashlar, shuningdek, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari va boshqa turli uyushmalar orqali ta'minlanadi. Bunga manfaatlar o'zaro aloqalar, kelishuvlar va murosaga kelishish orqali amalga oshiriladi. Ushbu tashkilotlar kishilarning barcha ehtiyoj va manfaatlarini, shuningdek, siyosiy manfaatlarini qondirishda hamda shakllantirishda faol ishtirok etadi, o'z faoliyatini esa jamiyatdagi huquqiy normalar, an'analar orqali muvofiqlashtiradi».¹⁸ Shu nuqtai nazardan qaraganda jamiyat faoliyatini takomillashtirishda islomiy qadriyatlardagi jamoa va inson manfaati bilan bog'liq muhim qarashlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, «...islomiy qadriyatlar – oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo'lmish Qur'oni Karim mazmunini ifodalagan umuminsoniy, ilohiy g'oyalardan iborat ma'naviy qadriyatlar tizimi bo'lib, islom dini va islomiy qadriyatlar mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas. Islom dinida shunday ajoyib g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar, falsafiy-axloqiy qoida va o'gitlar mavjudki, ularga amaliy faoliyatda asoslanish, suyanish faqat musulmonlargagina emas, musulmon bo'lmaganlarga ham, umuminsoniyatga ham muhimdir»¹⁹.

Islom qadriyatlari va o'zbek xalqi urf-odatlarini o'rtasida go'zal davomiylik va uyg'unlik mavjud bo'lib, bugungi kunda ikkalasining ham o'rni juda muhim. Ma'lum bo'lishicha, ajdodlarimiz an'ana va urf-odatlarining manbai islom dinidir. Xususan, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning sunnat va hadislari xalqimiz madaniyatining bir qismiga aylangan. Biroq barcha qadimiy urf-odatlarimiz islom shariati bilan hamohang, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ularning ko'pchiligi ilohiy e'tiqodga bo'lgan ishonchini yo'qotmagan.

Islom umuminsoniy din bo'lib, uning izdoshlari butun dunyoga tarqalgan. Islom dini bilan birga islomiy qadriyatlar ham kundan kunga rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Yosh avlodning kelajagi, ularga to'g'ri ma'naviy ta'lim va tarbiya berish ota-onalar, oqsoqollar, diniy arboblarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu bugungi yoshlarning ma'naviyatli, axloqli fuqaro bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mamlakat kelajagini yo'naltirishda sharqona ma'nodagi ta'lim konsepsiyasining ahamiyatini hisobga olish zarur. Zero, islom dinining farzand tarbiyasiga e'tiborli bo'lishga chorlovchi ta'limoti dunyoga kelgan kundan boshlab xalqimiz an'analari bilan uzviy bog'langan. Islomiy qadriyatlar har bir islom izdoshining hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan narsadir.

Biz islomiy qadriyatlarga nima deymiz? Islomiy qadriyatlar – axloqiy qadriyatlar, hamma narsani qadrlay bilish, halollik, yaxshi niyat, tinchlik va birlikka intilish, vijdonni saqlashdir. Endi mana shu islomiy qadriyatlarning bugungi yoshlarimiz o'rtasidagi saviyasi va o'rni qanday, degan savolga javob izlaylik. Yoshlar orasida islom diniga

¹⁸ Эргашев И., Холбеков А., Жакбаров М., Умарова Н. Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя. – Тошкент: Академия, 2005. – Б.41.

¹⁹ Мамадалиева Ф.А. Исломий қадриятларда шахс масъулияти муаммоси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2020. –Б.13.

Date: 13th April-2026

asoslar mavjud bo'lsa-da, islomiy qadriyatlar nima ekanligini tushunmaslik holatlari mavjud.

O'zbek xalqi an'analarning o'zagi islom qadriyatlariga asoslangan. Ba'zi odamlar islomiy qadriyatlarni o'zbek urf-odatlar bilan aralashtirib yuboradi va hatto ularni shirkka yaqin ma'noda ham tushunadi. Bularning barchasi bugungi yoshlar hayotida unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmay qolgan. Ular faqat xorijiy madaniyatni o'zlashtirishmoqda. Islomiy qadriyatlardan to'liq xabardor bo'lmagan holda begona madaniyatlarni qo'shib, islomni chalg'itmoqdalar. O'zbek xalqi ko'p asrlar davomida insoniy qadriyatlarni asrab-avaylab kelgan. Binobarin, o'zbeklar islom dinini shunday yuksak ma'naviy saviyada targ'ib qilishsa, ajabmas. Xalqimiz esa ana shunday targ'ibotni o'z qo'shiqlari, hikoyalari, maqollari, urf-odatlar bilan yetkaza olgan.

Zamonaviy siyosatning muhim vazifasi – bu fuqarolar ongida jamiyatni va uning qadriyatlarini shakllantirishdir. Har qanday millatning hayoti ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan bo'lsa, u davlatning rivojlanishida va insonning dunyoqarashi, tafakkurini keng bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Bir tomondan jamiyat bu dunyoviy jamiyat bo'lib, diniy munosabat bilan belgilanmaydigan shaxs va ijtimoiy munosabatlarning turini shakllantiradi. «Shaxs va jamiyat o'zaro munosabatda bir-biri bilan bog'liq tushunchalardir. Shaxs jamiyatda shakllanadi va rivojlanadi. Shaxsning o'ziga xos sifatleri jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari bilan belgilanadi. U shaxs sifatida shakllanish uchun juda ko'p murakkab bosqichlardan o'tishi, zarur bilimlar, hayotiy tajribalarga ega bo'lishi, o'zi yashayotgan va mehnat qilayotgan jamoa muhit va muayyan jamiyatning talab va ehtiyojlarini o'zida aks ettirishi muhim».²⁰ Bunday jamiyatda deyarli hech narsa shaxsning shaxsiy manfaati va ratsionalligidan kelib chiqib, uning erkinligi va mustaqilligiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Boshqa tomondan jamiyat uyushmalari, mustaqil birlashmalari, jamiyat institutlarining xilma-xil shakllarini nazarda tutib uning tarkibidagi diniy tashkilotlar uchun muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, akademik E.Yusupov to'g'ri ta'kidlaganidek, «Islom dini insonlarni asrlar davomida axillikka, hamkorlik va hamjihatlikka chorlagan, zo'rlik va zo'ravonlikni, adolatsizlikni qoralagan, har bir shaxsni halollik, iymoniylilik, insoflilik, insonparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatgan. O'n to'rt asr davomida islomiy qadriyatlar o'zbek xalqining bir necha ming yillik tarixiy an'analari, urf-odatlariga ham chuqur singgan, ularni rivojlantirgan»²¹.

Ilmiy dunyoda din va jamiyat o'rtasidagi muvofiqlik muammosi bo'yicha konsensus hali shakllanmagan va uning bundan keyin ham rivojlanmasligi ehtimoldan yiroq emas. Jamiyat bir xil emas va odamlarning dindorligi hech qachon teng bo'lmagan, bo'lmaydi ham. Olimlar jamiyatda dinning roliga turlicha qarashgan. S. Frankning fikriga ko'ra ular o'zaro bog'liq bo'lishi kerak va din jamiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimizda uzoq yillar amal qilib kelgan marksizm mafkurasi dinning jamiyatdagi

²⁰ Якубов Ю.М. Ислам таълимотида шахс ва жамият муносабатлари масаласи: фалсафа фанл... номз. диссер. автореферати. –Тошкент, 2008. – Б. 11.

²¹ Юсупов Э. Исламий қадриятлар ва диний экстремизм. –Тошкент: Тўқимачилик институти нашриёти, 1999. – Б.10.



Date: 13th April-2026



rolini past baholagan, unga salbiy, inkor etuvchi va to'liq rad etish siyosatini olib bordi. Ko'rib chiqilayotgan muammo doirasida din va jamiyat bir-biriga mos kelish-kelmasligini va islom mintaqasida jamiyatni barpo etishning roli va imkoniyatlari qanday ekanligini aniqlash, asosiy muammolarni, to'siqlarni va zarur shartlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Jamiyatni rivojlantirish jarayoniga islomiy qadriyatlarni qay darajada mos kelishini, solishtirilishini va ular kiritilayotgan jamiyat haqiqati bilan asrlar davomida rivojlanib borgan jamiyat va shaxsning qadriyat munosabatlariga mos kelishini aniqlash ham bugungi kunda hal etilishi muhim bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Shu o'rinda, avvalo, biz dinning jamiyat bilan qanday aloqasi borligi va ular bir-biriga qanchalik mos kelishiga e'tibor qaratamiz.

Din inson dunyoqarashini shakllantirib insondagi fundamental ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantiradi. Madaniyat va axloq qoidalari jamiyatning muhim xususiyatlari sifatida ular dinning ishtirokisiz shakllanmaydi. Boshqa tomondan, u insonni cheklaydi, ma'lum me'yorlar va ta'qiqlar kiritib jamiyat va shaxs ma'naviy-axloqiy munosabatlarini mustahkamlaydi. Shu boisdan ham aynan jamiyatda din bilan jiddiy kelishmovchiliklar bo'lmasligi kerak, chunki bunday jamiyat inson, vijdon va din erkinligini to'liq kafolatlaydi va har bir alohida shaxs o'z e'tiqodi va din masalalariga bo'lgan munosabatini mustaqil ravishda belgilaydi, bu esa, o'z navbatida, nazorat qilish, majburlash funksiyasiga ega emas, ya'ni inson uchun tanlov erkinligi mavjud bo'ladi.

Dinning jamiyatdagi rolini yo'qotish va inkor etishga qaratilgan barcha urinishlarga qaramay, u o'z huquqlarini himoya qila oladi va qayta tiklanaveradi. Sababi diniy qadriyatlar inson yaralibdiki, u bilan hamroh holda yashaydi va inson hohish irodasi bilan bunyod etilgan barcha tuzilmalarda din yoki uning qadriyati mujassam. M.Xayrullayev «IX–XII asrlarda musulmon madaniyatidagi umumiy madaniy yuksalish Movarounnahr va Xuroson olimlari ijodida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Ellinistik davrning oxirlarida fan va madaniyat markazi Misrning Iskandariya shahri deb hisoblangan bo'lsa, IX-XII asrlarda esa, musulmon madaniyatining «oltin davri» bo'lmish fan va madaniyat rivoji Xuroson hamda Amudaryo ortidagi o'lka ya'ni Movarounnahr (Markaziy Osiyo) hududiga ko'chib o'tdi. O'sha davrlarda Markaziy Osiyodan Muhammad Xorazmiy (783-850), Ahmad Farg'oniy (tax.865), Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (810- 870), Muhammad Termiziy (824-892), Abu Nasr Farobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Mahmud Zamaxshariy (1075-1114) kabi yirik allomalar yetishib chiqdi, ularning benazir aql-zakovati ona zamin dovrug'ini olamga yoydi, nomlari esa tarix zarvaraqlariga abadiy harflar bilan yozildi»²², - deya ta'kidlagan edi.

Dinning ta'siri odamlar ongida hukmron bo'lgan va ko'p hollarda ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda hal qiluvchi bo'lgan hududlarda jamiyat qurilishiga bo'lgan nuqtai nazarini hisobga olish juda muhimdir. Shu boisdan ham jamiyatshunos olimlar tomonidan jamiyat va islomning uyg'unligi, islom jamiyatida jamiyatni qurish imkoniyatlari masalasini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Islomda jamiyat va demokratiyaga yaqin bo'lgan bir qator prinsiplar mavjud: kengash, hokimiyatni saylash, hukmdorni

²² Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк Уйғониш даври маданияти. -Тошкент: ФАН, 1994. – Б. 7-11.

Date: 13th April-2026



nazorat qilish va norozilik huquqi, soʻz erkinligi, jamiyatning siyosiy hayotida faol ishtirok etish, xayriya, huquq, fuqarolarning miting va namoyishlarga, tenglik, adolat, erkinlik, hamkorlik, din erkinligi, siyosiy partiyalar va koʻp partiyali tizim, shaxs huquqlari va ijtimoiy adolatni himoya qilish, mulk huquqi, harakatlanish va sayohat erkinligi – bularning barchasi Madina konstitutsiyasida aks ettirilgan. Islom koʻplab insonlar dunyoqarashi, turmush tarzini belgilab beradigan muhim omil hisoblangan. Shu sabab islomda soʻz va fikr erkinligi, musulmon olamida inson huquq va erkinliklarini taʼminlash istiqbollarga oid masalalar dolzarb sanalgan. Islomga koʻra huquq va erkinlik musulmon uchun ham shaxsiy, ham jamoat hayotining barcha jabhalariga yoʻl koʻrsatuvchi yorugʻ nur hisoblanadi. Dinshunos olimlar demokratiyaning asosiy tamoyillari birinchi boʻlib islomda oʻrnatilganini, chunki Muhammad paygʻambar (s.a.v.) Madina jamoatining siyosiy modeli orqali oʻzining konstitutsiyaviy asoslari, demokratiya va turli din vakillarining vijdon erkinligini kafolatlaganligi bilan alohida ajralib turishini taʼkidlaganlar. Aholining siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, umumiy farovonlikning ijtimoiy siyosatini ishlab chiqishi, jamiyatning rivojlanishi inson huquqlari va fuqarolik erkinliklari madaniy va diniy boʻlishidan qatʼi nazar har qanday musulmon inson uchun ham xosdir. Shu boisdan ham xalqimiz islomni ularga koʻp erkinliklar beradigan, ularni qoʻrquvdan himoya qiladigan, oʻzaro hurmatni oshiradigan va insonni barcha huquq va erkinliklarini himoya qiladigan kuch sifatida koʻrishadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda katta siyosiy oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Shu bilan birga jahonda roʻy berayotgan ijtimoiy oʻzgarishlar jarayonida musulmon olamining xalqaro aralashuvlar markazida boʻlishi kuzatilmoqda. Shuning uchun ham islomiy nodavlat notijorat tashkilotlar, ushbu ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy va turli ekologik sharoitlarga bogʻliq ravishda jiddiy oʻzgarishlarga duch keldi va tobora koʻzga tashlanib dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek: «Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, Islom hamjamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiyashtirish va musulmon yoshlarni radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni oʻta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Dunyodagi ayrim doiralar Islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda Islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bogʻlashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga toʻgʻri keladi. Bu omil Islom olamini yanada jipslashishga chorlamoqda. Islom hamjihatligi jahondagi keskinlikni yumshatishda muhim rol oʻynashi mumkin»²³.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi²⁴ da jamiyatga taʼrif berilmagan boʻlsa-da, undagi bir qator boblarda davlat boshqaruvining boʻlinish prinsiplari, fuqarolik institutlarining huquqiy asoslari eʼtirof etilgan hamda ularni davlat bilan oʻzaro hamkorligi tamoyillari belgilangan. «Shu boisdan ham, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asos solgan xalq bilan muloqot, ularning murojaatlar bilan ishlash boʻyicha yangi boʻlgan tizim – Xalq

²³ Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаровонлигимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. 2 – том. –Б 457.

²⁴Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б.36.

Date: 13th April-2026



qabulxonalari instituti islomiy qadriyatlarga xos bo'lgan adolatparvarlik, haqiqatni amalda ta'minlash borasidagi ana shunday ulug' an'analar ildizlaridan quvvat oladi. Sh. Mirziyoyev bugun barchamizni xalq qalbiga quloq solishga, odamlarning dard-tashvishlarini astoydil tinglashga, muammolarni hal qilishda amaliy yordam berishga da'vat etayotgani – bu borada ayrim katta-kichik amaldorlarning ongida toshday qotib qolgan eskicha qarashlarni yo'qotish, o'rniga xalq istaklari asosida ishlash prinsiplarini hayotimizga chuqur joriy qilishga qat'iyat bilan harakat qilayotgani buyuk shoirimiz aytganidek, “Quchoq ochib xalq ichiga borish», uning armonlarini ushaltirish, orzularini ro'yobga chiqarishdek ulug' maqsadlarga qaratilgan”. Umuman olganda, jamiyat ko'plab chet el olimlarning e'tiroficha: «insonlarning xususiy manfaat va ehtiyojlari sohasi (shu sohadagi munosabatlar yig'indisi) dan iboratdir».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Эргашев И., Холбеков А., Жакбаров М., Умарова Н. Фуқаролик жамияти ва миллий ғоя. – Тошкент: Академия, 2005. – Б.41.
2. Мамадалиева Ф.А. Ислomий қадриятларда шахс масъулияти муаммоси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2020. – Б.13.
3. Якубов Ю.М. Ислom таълимотида шахс ва жамият муносабатлари масаласи: фалсафа фанл.... номз. диссер. автореферати. – Тошкент, 2008. – Б. 11.
4. Юсупов Э. Ислomий қадриятлар ва диний экстремизм. – Тошкент: Тўқимачилик институти нашриёти, 1999. -Б.10.
5. Мамадалиева Ф.А. Ислomий қадриятларда шахс масъулияти муаммоси. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент. 2020. – Б.5.
6. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаровонлигимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. II том. –Б 457.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б.36.